


17-dars. Sonlarni (50 – 32) ko'rinishda ayirish



1. Yashikda 50 ta idishda sut bor edi. Undan 32 ta idishdagi sut olib ketildi. Yashikda nechta idishda sut qoldi? Yechilishini tushuntiring.



$$(5 \text{ o'nl.} - 3 \text{ o'nl.}) - 2 \text{ birl.} = 2 \text{ o'nl.} - 2 \text{ birl.} = 1 \text{ o'nl.} 8 \text{ birl.}$$



Sonni bo'laklarga bo'lib ayirish mumkin: bunda oldin o'nliklar, keyin birliklar ayiriladi.



2. Misollarni yuqoridagi namuna bo'yicha hisoblang.

$$40 - 13$$

$$70 - 17$$

$$50 - 45$$

$$90 - 32$$

$$80 - 61$$

$$30 - 22$$

$$60 - 13$$

$$20 - 16$$



3. Korxonada 90 kg pishloq tayyorlandi. 50 kg pishloq supermarketga yuborildi, 24 kg pishloq esa kichik do'konda sotildi. Qancha pishloq qoldi?



4. Ifodalarning qiymatini amallarning to'g'ri tartibiga rioya qilgan holda toping.

$$72 - 32 - 15$$

$$80 - (45 - 23)$$

$$61 + 19 - 37$$


$$23 + (70 - 46)$$

$$50 - 17 + 21$$

$$72 + (90 - 85)$$



5. Madina do'stlaridan qaysi yogurt ular uchun eng sevimli ekanini so'radi. U barcha natijalarni diagrammada aks ettirdi.



- Qaysi yogurtni eng kam odam tanladi?
 - Qaysi yogurtni eng ko'p odam tanladi?
 - Bolalar bananli va olmali yogurtlardan qaysi birini eng ko'p va qancha ko'p tanlashdi?
 - So'rovnoma jami nechta bola ishtirok etdi?
- Diagramma bo'yicha o'zingiz savollar o'ylab toping va ularni sinfdoshlaringizga bering.



6. a va b ning qiymatlarini toping.

$$a + 4 \rightarrow ? - 7 \rightarrow ? + 8 \rightarrow b - 9 \rightarrow ? + 10 \rightarrow ? - 6 \rightarrow 8$$



7. Uchta sinfga jami 70 ta idishda yogurt tarqatildi. Birinchi sinfga 23 ta, ikkinchi sinfga esa 25 ta idishda yogurt berildi. Uchinchi sinfga nechta idishda yogurt berilgan?

8. Sut mahsuloti nomini toping.

A $50 - 38$

N $70 - 21$

B $80 - 57$

R $60 - 54$

Z $90 - 32$

I $30 - 13$

23

6

17

49

58

12

